

INTERFAOL METODLAR ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH

Rustamova Shohista Alisher qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

E-mail: rustamova3196@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bu maqolada interfaol metodlar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash usullari va interfaol darslarning samaradorligi, interfaol metodlarning matematika darslaridagi o‘rni va ahamiyati keltirib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: interfaol metod, o‘qitish jarayoni, o‘qituvchi, talaba, pedagogik, an’anaviy, zamonaviy, ta’lim, trening, bahs-munozara, mustaqil.

Hozirgi vaqtda matematika fanini o‘qitish jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir matematika darsining didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni talabalar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish talabalarning o‘zlashtirish darajasi o‘shishiga olib keladi. Zero, interfaol metodlarni samarali qo‘llash talabalarga bilim berish sifatini oshirish, uning mazmun-mohiyatini takomillashtirish, ta’limni zamonaviy talablar darajasida tashkil etish, ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik, axborot texnologiyalarini joriy etish, ularda interfaol usul va vositalardan foydalanish ko‘zda tutilgan. Shu sababli, bugungi kunda “Matematika” fani o‘qituvchilari oldida quyidagi muhim vazifalar turadi:

- ✓ talabalarning mustaqil bilim olish, o‘rganish qobiliyatlarini shakllantirish

va rivojlantirishda fanning o‘rni va ahamiyatini oshirish;

- ✓ mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va o‘tkazish;
- ✓ talabalarning faolligini oshirish, o‘zlashtirish darajalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metod va shakllarni qo‘llash;
- ✓ ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalardan ko‘rinib turibdiki, talabalarni mustaqil bilim olishiga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish va doimiy ravishda faolligini oshirib borish lozim. Shunday ekan, matematika fanini o‘qitish samaradorligini oshirish o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda o‘tkazishda interfaol metodlardan keng foydalanish, o‘qitish mazmuniga mos dasturiy ta’minotini ishlab chiqish, ularni o‘quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Interfaol metodlardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. Interfaol metodlar olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, interfaol metodlarning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Interfaol metodlar bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

Interfaol metodlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo‘llanadi.

Interfaol metodlarning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, umumta’lim malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi. Metodning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni

shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirishda maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dars jarayonining oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod -biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihadlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e‘tiborga olinadi.

Interfaol ta’lim – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi (ta’lim oluvchi va kompyuter) o‘zaro harakatni amalga oshiruvchi dialogli ta’lim.

Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, talabalar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, bir jamoa bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish,

yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta‘lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi talabani faol ishtirok etishga chorlaydi. Talaba butun jarayon davomida ishtirok etadi. Talaba markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- talabalarning o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarining doimiy ravishda bo‘lishini ta‘minlash;

- ta‘lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;

- talabaning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish;

- talabaning yuqori darajada rag‘batlantirilishi;

- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e‘tiborga olinishi;

- talabaning tashabbuskorligi va mas‘uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;

- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;

- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

- talabalarni dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga yo‘llash;

Interfaol metodlardan foydalanish talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. O‘qituvchi talabaning talab va ehtiyojlariga ko‘ra ta‘lim texnologiyalariga asta-sekin murakkab elementlarni kiritgan holda oqilona qo‘llay bilishi lozim. Har bir pedagog shuni doimo yodda tutishi kerakki, hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari talabalarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va ijod qilishga yo‘naltirilmog‘i lozim. Bunday usullar talabalarga tayyor bilimlarni o‘zlari qidirib topib, mustaqil o‘rganib, tahlil qilish va xulosalarni ham o‘zlari chiqarishlari lozirligini o‘rgatadi. Bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratiladi, talaba dars jarayonining asosiy ijrochisiga aylanadi. Interfaol usullar

o‘qituvchi-talaba hamda talabalarning o‘zaro birgalikdagi harakatlaridir. Ushbu jarayonda o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotining tashkilotchisi, rahbari va nazoratchisi vazifasini bajaradi.

Bunda talaba auditoriyada o‘zini erkin his qilishi, o‘quv faoliyati emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin bayon qila oladi va ta’lim olish samaradorligi yuqori darajaga yetadi.

Interfaollik – ta’lim doirasida prinsipial yangi hodisa – shu tufayli ta’lim oluvchi:

- ta’lim jarayonining hamma sub’ektlari bilan faol o‘zaro harakatda bo‘lishi, faqatgina o‘qituvchi bilan shaxsiy munosabat yo‘lidagina emas, balki boshqa talabalar, ma’muriyat bilan hal qila olishi mumkin;

- multimedia ob’ektlarini taxlil qilish jarayonida ularning mazmunini, shaklini, o‘lcham va ranglarini dinamik ravishda boshqarishni, turli tarafdin ularni kuzatishni, boshqa shunga o‘xshash manipulyastiyalarini qayta ta’minlashni, ko‘proq aniq ko‘rsatuvga erishish uchun hohlagan joyidan to‘xtatib va davom ettira olish mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, interfaollik faqatgina axborotlarni passiv qabul qilish uchungina emas, balki o‘rganilayotgan ob’ektlar yoki jarayonlarda va virtual modellarning o‘zaro harakatlarida multimedia modellari xususiyatlarini faol tadqiqot qilish uchun xam imkoniyat yaratib beradi. Bunday multimediali modellar matematika fanida qo‘llanilsa samaradorligi juda yaxshi bo‘ladi.

Interfaollik darajasi matematika darslarida qanchalik yuqori bo‘lsa, ta’lim jarayoni ham shunchalik samarali bo‘ladi.

Ushbu zamonaviy metodlar yoki interfaol usullar, matematikani o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik trenninglar o‘quvchi talabalarda mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxasis bo‘lishlariga hamda mutaxasisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.N. Azizxo‘jaev “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorar”
.T.:2003y
2. S.Alixanov “Matematika o‘qitish metodikasi” Tash.2011y
3. I.T.Aliyev “Matematika fanining uzviyligini ta‘minlashda pedagogik texnologiyalar elementlari foydalanish” Tash.2004y
4. D.I.Yunusova “Matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari”
T.: 2010y
5. ziyonet.uz/uzl/library/libid/40900
6. uz.wikipedia.org/wiki

